

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10444666>

Xasanova X.B

Landshaft dizayni kafedra katta o'qituvchisi, SamDAQU

Imomov M.R

Landshaft dizayni kafedra katta o'qituvchisi, SamDAQU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bog'larni manzaraviy yoritishda landshaft dizayni vositalari, yoritish usullari, yoritish texnik imkoniyatlari, yoritishda badiiy yechimlar va landshaft kompozitsiyalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

Kalit suzlar: *Dekorativ yoritish, qurilmalar, geoplastika, nur-rang, sferik, klumbalar, favvora.*

Nurli-rangli landshaft kompozitsiyalari landshaft dizayni vositalari-o'simliklar, geoplastika, toshlar, suv qurilmalari, kichik me'moriy shakllarni kechqurungi (tungi) yorug'lantirishning turli usullarini bildiradi.

Kichik bog' kompozitsiyalarini tungi yoritish maqsadida nur-rang dizaynining texnik imkoniyatlari va yoritish usullaridan foydalaniladi, texnik, utilitar va me'moriy-badiiy vazifalar uyg'unlikda echiladi.

Landshaft yorug'lantirish quyidagi maqsadlarda tashkillashtiriladi:

- muhitda nurli-rangli komfort-qulaylik yaratish;
- diqqat va e'tiborni kompozitsiyaning muayyan elementlariga qaratish va ularning yorqin badiiy obrazini bo'rttirib ko'rsatish;
- insonga ijobiy hissiy ta'sir ko'rsatish;
- landshaft ob'ektlarida o'tkaziladigan bayramona tadbirlar va tantanalarni nur yordamida bezash.

Landshaft kompozitsiyalarini yoritish vositalari sifatida ko'p hollarda himoya ekraniga ega bo'lmagan sferik yoki ellipsoidsimon plafonli torsher svetilniklardan foydalanilgan. Biroq, hozirda ulardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular asosan daraxtlar shox-shabbalarini yoritib, er yuzini yoritmaydi.

O'zidan asosan gorizontaal yo'nalishda nur tarqatuvchi svetilniklar nisbatan yaxshi va chiroyliroqdir. Ular yordamida soddaroq hamda murakkab landshaft kompozitsiyalarini yoritish samaralidir. Daraxt va butalarning etarlicha yaxshi yorug'lantirilishi kech qolgan yo'lovchilar va tunda sayr qilganlarda xavfsizlik tuyg'usini shakllantiradi va o'simliklarning me'moriy-badiiy va landshaft sifatini to'laroq ko'rsatib berish imkonini yaratadi.

Bunday holatda hatto "yorug'lik kiri" ning ham o'ta kam miqdorda bo'lishi kuzatilgan.

Manzaraviy yorug'lantirishni tashkil qilish maqsadida o'ta yorqin svetodiodlarga ega bo'lgan svetilniklarni qo'llash keng kuchga kirib bormoqda. Kichik landshaft

kompozitsiyalarini yoritish maqsadida svetodiodli projektorlar, svetodiodli lineykalarni qo'llash, hamda klumbalar, tekis parterlar, rabatkalar, yo'laklar, suv havzalari va boshqa landshaft elementlarini nur oqimi bilan to'la yopishga mo'ljallangan korpusda joylashtirilgan turli sondagi svetodiodli priborlar qo'llanilmoqda.

Landshaft kompozitsiyalarining yoritilishini bo'rttirish, ya'ni ularga alohida urg'u berish maqsadida ob'ektni yorug'lik nuri bilan to'la qamrab "sug'oruvchi" projektorlar qo'llaniladi. Ular yorug'lik nurini samarali tarzda to'plovchi va ob'ektga aynan shu maqsadda "sug'oruvchan" nur tarqatuvchi optik uskunalari bilan ta'minlanadi.

Manzaraviy yoritish usullarini qo'llash orqali landshaft kompozitsiyalariga turli-tuman nur berish yo'llari amalga oshirilmoqda. Manzaraviy yoritish yorug'lik nurini kiritish orqali kompozitsiyaviy echimlarning "tunga modernizatsiya" sig'a asoslangan. Dekorativ yoritishni yaratish maqsadida hozirgi vaqtda turli firmalar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular sizga zarur bo'lgan svetilniklarning tiplarini, yoritish usullarini tanlash, ularni joyiga o'rnatish, ayniqsa o'simliklar guruhlarini tungi yoritish bo'yicha kerakli maslahatlarni berishi mumkin [4].

O'simliklar guruhlarini yotirish. Tig'is tanali daraxtlarni jozibador ko'rsatish maqsadida ularni bir yoki ikki tomondan yorug'lik nuri bilan "yopish" lozim. Ular ikki tomondan yoritilsa, turli tonlardagi ranglar yordamida yoritish yanada samarali chiqishi mumkin. Tanasi siyrak bo'lgan daraxtlarni yoritishda nur pastdan yuborilib, butalar esa ichidan nurlantiriladiki, bu ularga etarlicha manzaraviy ko'rinish beradi.

Xromatik tonli yorug'lik nurlarini rangi turlicha bo'lgan daraxtlar aralash ekilganda qo'llasa bo'ladi va u landshaft kompozitsiyalarining mavsumiy rangdorligini oshirishga ham yordam beradi. Masalan, yozgi bargga sof izumrud-yashil tonni berish maqsadida rtutli yoki yashil metallogalogen lampali priborlar qo'llaniladi, kuzgi palitalarni ko'rsatish uchun esa natrieviy yoki sariq metallogalogen lampalarni qo'llash ma'quldir. Qishgi peyzajda qor yopgan xvoy daraxtlarining shoxchalarini "sovuq" tondagi yorug'lik nurlari bilan yoritish ma'quldir, ularning tanasi esa aksincha—"issiq" tonli nurlar bilan yoritiladi. Xvoyli guruhlarining qoramtir fonida berezaning oqishligini bo'rttirish uchun uning tanasi er sathidan yorug'lantirilsa yaxshi ko'rinadi, archalar silueti esa oppoq qor va nur bilan yopilgan maysazor fonida jozibador ko'rinadi.

Favvora tizginlarini yoritish bir rangli yoki ko'p rangli bo'lishi mumkin. Biroq haddan ziyod ranglar aralashmasi tizginlarining badiiy ko'rinishi darajasini oshirmaydi. Suv o'z holicha shunday manzaraliki, uni oq yoki engil moviy rangda yoritish uni yanada jozibali ko'rsatadi. Yorug'lik vositalarining yoritish paytida kuchli favvora tizginlarining shakli, suv harakatining holati va shunga o'xshash omillar bilan belgilanadi.

Favvorani yoritish usulini tanlash badiiy-me'moriy vazifalar, tizginlar kompozitsiyasi, favvoraning plastik echimi hamda atrof muhit xarakteri bilan aniqlanadi.

Landshaft ob'ekti yalpi hududini yoritish ssenariyasi puxta o'ylanishi zarur va eng qiziq landshaft kompozitsiyalarini yoritish dastlabki modellashtirish usuli bilan aniqlanishi mumkin. Buni ko'tarib yuriluvchi qisqa muddatga yonuvchi fonalar yordamida amalga

oshirish mumkin. Sinab ko'rilgan g'oyalar variantlarini tahlil qilib eng qiziqarisini tanlash zarur va shundan so'nggina statsionar harakatlanuvchi yoritish masalasini echish mumkin.

Yoritgichlarni tanlashning yakuniy bosqichini loyihalana yotgan hudud uchun qabul qilingan tungi yoritish ssenariyasi asosida amalga oshiriladi. Yer yuzini va past bo'lyi butalarni yoritish uchun nuri atrofga taraluvchi svetilniklar qo'llaniladi. Ularning alleya va xiyobonlar bo'ylab joylashtirilgani ma'qul, chunki bunda predmetlarni etarlicha ko'rish ta'minlanadi.

Nur yo'nalishining boshqaruvchi svetilniklarning xususiyati shundaki, landshaft kompozitsiyalari elementlarini chiroqlarning ko'zni qamashtiruvchi nurisiz ham yaxshi ko'rishi ta'minlanadi. Predmetni faqat bir tomondan ko'rish kerak bo'lganda tomonlarning biridan yuqoriga yo'naltirib yoritish usuli qo'llaniladi va svetilnik er yuzidan biroz yuqoriga, predmet oldiga o'rnatiladi. Nur to'g'ri predmetga yo'naltiriladi. Bunday yoritish usulini relef kompozitsiyalarini yoritishda qo'llash yaxshi samara beradi.

Ustunlarga o'rnatilgan yoritgichlarning yorug'lik nuri umumiy tarzda atrofga birday taraladi. SHahar sayrgohlari, xiyobonlarini yoritish uchun balandligi 4–5 m ustunlar qo'llaniladi. Ko'pgina skver va parklarning xiyobonlarini yoritishda balandligi–2,5–5 m bo'lgan ustunlar qo'llaniladi. Har bir alohida holat uchun ustun balandligi svetilnik konstruksiyasining quvvati yorug'lik dog'ining yuzi, zaruriy yoritish darajasi kabi ko'rsatgichlardan kelib chiqqan holda alohida hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Uralov A.S., Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. – Tashkent, 2014.
2. Prikhodko P.I. Landshaftnaya kompozitsiya malogo sada.-Kiev, 1976.
3. Pugachenkova G.A. Sredneaziatskie sadı i parki. // Iz xudojestvennoy sokroviщnitsı Srednego Vostoka. – T., 1987.- S. 185-214.
4. Pugachenkova G.A. Vostochnaya miniatyura kak istochnik po istorii arxitektury XV-XVI vv. // Arxitekturnoe nasledie Uzbekistana. – Tashkent, ANU, 1960. – S.161.